

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YOSHLARDA NIKOH QURISH MOTIVLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shodiyeva Nodira Normamatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, o'qituvchi

e-mail: shodiyevan22@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-3927-8089>

Annotatsiya.

Mazkur tadqiqotda yoshlarda nikoh qurish motivlarining shakllanishi hamda ularning oilaviy munosabatlar barqarorligi va oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Nikohga kirish motivlarining mazmuni sevgi va emotsional yaqinlik, o'zaro hurmat, ma'naviy-ruhiy moslik, ijtimoiy mavqe, moddiy manfaatdorlik, ota-ona va ijtimoiy muhit ta'siri, yolg'izlikdan qochish, avlod davomiyligini ta'minlash kabi omillar bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, ongli va barqaror motivlar asosida qurilgan nikohning er-xotin o'rtasidagi o'zaro tushunish, mas'uliyat, ishonch, emotsional qo'llab-quvvatlash va nizolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalariga ijobiy ta'siri asoslanadi. Tashqi bosim, moddiy manfaat yoki vaziyatli ehtiyojlarga tayangan motivlarning esa oilaviy qoniqishning pasayishi, psixologik ziddiyatlar va munosabatlarda beqarorlik yuzaga kelish xavfini oshirishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash, nikoh oldi maslahatlarini takomillashtirish va mustahkam oilaviy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan profilaktik-psixologik ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: yoshlar, nikoh motivlari, oila mustahkamligi, oilaviy munosabatlar, psixologik moslik, nikohga tayyorgarlik, o'zaro ishonch, oilaviy qoniqish, emotsional yaqinlik, oilaviy barqarorlik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ МОТИВОВ ВСТУПЛЕНИЯ В БРАК У МОЛОДЁЖИ НА ПРОЧНОСТЬ СЕМЬИ

Шодиева Нодира Нормаматовна

Термезский университет экономики и сервиса, преподаватель

Аннотация.

В данном исследовании анализируются особенности формирования мотивов вступления в брак у молодёжи и их психологическое влияние на устойчивость семейных отношений и прочность семьи. Раскрывается связь брачной мотивации с такими факторами, как любовь и эмоциональная близость, взаимное уважение, духовно-психологическая совместимость, социальный статус, материальная заинтересованность, влияние родителей и социальной среды, стремление избежать одиночества и продолжить род. Обосновывается положительное влияние осознанных и устойчивых мотивов вступления в брак на взаимопонимание супругов, ответственность, доверие, эмоциональную поддержку и конструктивное разрешение семейных конфликтов. Вместе с тем показано, что мотивы, основанные преимущественно на внешнем давлении, материальной выгоде или ситуативных потребностях, могут способствовать снижению удовлетворённости браком, усилению психологических противоречий и нестабильности супружеских отношений. Результаты исследования имеют практическое значение для психологической подготовки молодёжи к семейной жизни, совершенствования добрачного консультирования и организации профилактической работы, направленной на формирование устойчивых семейных отношений.

Ключевые слова: молодёжь, мотивы вступления в брак, прочность семьи, семейные отношения, психологическая совместимость, готовность к браку, взаимное доверие, удовлетворённость браком, эмоциональная близость, семейная устойчивость.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE INFLUENCE OF MARRIAGE MOTIVES AMONG YOUNG PEOPLE ON FAMILY STABILITY

Shodiyeva Nodira Normamatovna

Termez University of Economics and Service, teacher

Abstract.

This study examines the formation of marriage motives among young people and their psychological influence on the stability of marital relationships and family strength. Particular attention is paid to the relationship between marriage motivation and such factors as love and

emotional intimacy, mutual respect, psychological and spiritual compatibility, social status, material interests, parental and social influence, avoidance of loneliness, and the desire to continue the family lineage. The study substantiates that marriages based on conscious and stable motives contribute positively to mutual understanding between spouses, responsibility, trust, emotional support, and constructive conflict-resolution skills. At the same time, marriage motives predominantly determined by external pressure, material benefit, or situational needs may increase the risk of lower marital satisfaction, psychological contradictions, and instability in family relationships. The findings are of practical importance for improving the psychological preparation of young people for family life, developing premarital counselling practices, and organizing preventive psychological activities aimed at strengthening marital and family relationships.

Keywords: young people, marriage motives, family stability, marital relationships, psychological compatibility, readiness for marriage, mutual trust, marital satisfaction, emotional intimacy, family strength.

Kirish. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy hayotga moslashuvi va ma'naviy-ruhiy barqarorligida oila alohida o'rin egallaydi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotelning "Inson tabiatan ijtimoiy mavjudotdir" degan mashhur fikri inson hayoti boshqa kishilar bilan munosabat, hamkorlik va o'zaro mas'uliyat asosida kechishini ifodalaydi. Mazkur nuqtayi nazardan qaralganda, nikoh insonning eng muhim ijtimoiy-psixologik qarorlaridan biri bo'lib, u shaxsning nafaqat individual hayotiga, balki kelajak oilaning barqarorligi va farovonligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Nikoh qurish yoshlar hayotidagi mas'uliyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon insonning hayotiy qadriyatlari, ehtiyojlari, hissiy kechinmalari, dunyoqarashi, oilaviy tajribasi hamda kelajak haqidagi tasavvurlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli yoshlarning qanday motivlar asosida nikoh qurishi masalasi psixologiya fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sanaladi. Nikohning sevgi, o'zaro hurmat, emotsional yaqinlik, ma'naviy va psixologik moslik kabi ichki motivlarga asoslanishi oilaviy munosabatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Aksincha, moddiy manfaat, ijtimoiy mavqe, ota-onalar yoki atrofdagilarning bosimi, yolg'izlikdan qochish, muayyan muammolardan xalos bo'lish kabi tashqi yoki vaziyatli motivlarning ustuvorligi kelgusida oilaviy munosabatlarda turli psixologik ziddiyatlarni yuzaga keltirishi ehtimolini oshiradi.

Zamonaviy jamiyatda nikoh va oila haqidagi qarashlarning o'zgarishi, yoshlarning mustaqil hayotga intilishi, kasbiy va iqtisodiy ustuvorliklarning kuchayishi, axborot makoni hamda ijtimoiy tarmoqlarning shaxslararo munosabatlarga ta'sirining ortishi nikoh motivlarining mazmunan murakkablashishiga olib kelmoqda. Bugungi yoshlar uchun turmush o'rtog'ini tanlashda hissiy yaqinlik bilan bir qatorda shaxsiy rivojlanish, dunyoqarash uyg'unligi, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy maqom va kelajak rejalarining mosligi kabi omillar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa nikohga kirish motivlarini faqat romantik his-tuyg'ular doirasida emas, balki ko'p omilli psixologik hodisa sifatida tadqiq etishni talab qiladi.

Oila mustahkamligi er-xotin o'rtasidagi mehr-muhabbatning mavjudligi bilangina belgilanmaydi. Unda o'zaro ishonch, hurmat, mas'uliyatni taqsimlash, emotsional qo'llab-quvvatlash, murosaga kelish, nizolarni konstruktiv hal etish, oilaviy qadriyatlarning mushtarakligi hamda hayotiy maqsadlarning uyg'unligi muhim rol o'ynaydi. Nikoh qurishga undagan dastlabki motivlar keyinchalik er-xotinning oila hayotidan qoniqishi, bir-birini qabul qilishi va turli hayotiy qiyinchiliklarga birgalikda moslashishida namoyon bo'ladi. Demak, nikoh motivlari oila mustahkamligini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri sifatida qaralishi lozim. Shu jihatdan yoshlarda nikoh qurish motivlarining psixologik mazmunini aniqlash, ularni ichki va tashqi, barqaror va vaziyatli, konstruktiv va potensial xavf tug'diruvchi motivlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi yoshlarda nikoh qurishga undovchi asosiy motivlarni psixologik jihatdan tahlil qilish hamda ularning oila mustahkamligi, er-xotin munosabatlari barqarorligi va nikohdan qoniqish darajasiga ta'sir etish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Yoshlarda nikoh qurish motivlari, nikohga psixologik tayyorgarlik hamda mazkur omillarning oilaviy munosabatlar barqarorligiga ta'siri mahalliy va xorijiy psixologiyada turli nazariy-metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish nikohning mustahkamligi faqat turmush qurish faktining o'zi bilan emas, balki shaxsni nikohga undagan motivlarning mazmuni, oilaviy qadriyatlar tizimi, psixologik tayyorgarlik, sherik bilan o'zaro munosabatlarning sifati va nizolarni bartaraf etish usullari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

O'zbek oilasi doirasida mazkur muammoni maxsus empirik tadqiq etgan olimlardan biri N.A. Sog'inov hisoblanadi. Uning "O'zbek oilasida nikohdan qoniqishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari"[1] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferatida nikohga kirish motivlari yosh oilaning barqarorligini belgilovchi nikoholdi omillaridan biri sifatida tadqiq etilgan. Olimning empirik natijalariga ko'ra, o'zbek oilalarida nikoh qurish motivlari ierarxiyasida farzandli bo'lish istagi, oila qurishga intilish hamda ota-ona va qarindoshlarning kutishlariga javob berish muhim o'rin egallagan. Ayniqsa, ota-ona va qarindoshlar kutishlarini qondirish motivining ayollarda va qishloq oilalarida nisbatan kuchli namoyon bo'lishi aniqlangan. Bu natija nikoh motivlarini o'zbek ijtimoiy-madaniy muhitidan ajratilgan holda baholab bo'lmashligini ko'rsatadi. Sog'inov tadqiqotining mazkur maqola uchun ahamiyatli tomoni shundaki, nikohning mustahkamligini o'rganishda sevgi va individual tanlov bilan bir qatorda farzand, oila qadriyati, ota-ona ta'siri va jamoatchilik fikri kabi ijtimoiy motivlarni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

O'zbek olimasi N.R. Mamatovanning 2024-yilda himoyaga taqdim etilgan "Yoshlarda reproduktiv madaniyatni shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari"[2] mavzusidagi PhD dissertatsiyasi avtoreferatida yoshlarning oilaviy

hayotga tayyorgarligi reproduktiv qarashlar, nikoholdi tasavvurlari va ijtimoiy-psixologik yetuklik bilan bog'liq holda tadqiq qilingan. Muallif nikoholdi omillari tarkibiga yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi, oila qurish motivlari, bo'lajak turmush o'rtog'ini nikohgacha tanish muddati va kelajak oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlarini kiritadi. Tadqiqotda turmush qurgan respondentlarning 50 foizi nikoh tufayli iqtisodiy yetuklikka to'liq erisha olmaganini, 15,74 foizi psixologik, 32,41 foizi esa kasbiy yetuklik bilan bog'liq qiyinchiliklarni qayd etgani ko'rsatilgan. Mazkur natijalar nikoh qurish istagining mavjudligi hali shaxsning oilaviy hayotga kompleks tayyorligini anglatmasligini ko'rsatadi. Shu jihatdan nikoh motivining shaxsning iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy yetukligi bilan uyg'unlashuvi kelgusidagi oilaviy barqarorlik uchun muhim shart sifatida qoralishi mumkin.

Rus oilashunosligida S.I. Golodning "Семья и брак: историко-социологический анализ"[3] nomli monografiyasi oila va nikoh institutining transformatsiyasini tushuntirishda muhim nazariy manbalardan biridir. Mazkur asar 1998-yilda Sankt-Peterburgda "Petropolis" nashriyotida monografiya sifatida chop etilgan. Golod oilaviy munosabatlarning tarixiy shakllarini tahlil qilib, nikohning mazmuni ijtimoiy taraqqiyot bilan birga o'zgarishini ko'rsatadi. Uning yondashuvida zamonaviy oilada nikohni faqat an'anaviy me'yor yoki ijtimoiy majburiyat sifatida tushunish yetarli emas; er-xotin o'rtasidagi shaxsiy yaqinlik, individual tanlov va o'zaro munosabatlarning mazmuni tobora muhimlashib boradi. Olimning oilaning tarixiy tiplari haqidagi konsepsiyasi Rossiya oilashunosligidagi muhim nazariy yo'nalishlardan biri sifatida baholanadi. Mazkur qarash tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan yoshlarning nikoh motivlaridagi "ijtimoiy zarurat"dan "shaxsiy-emotsional tanlov"ga siljishni tushuntirish imkonini beradi.

Rus psixologi S.V. Joludeva nikohga psixologik tayyorgarlikni bevosita nikoh motivatsiyasi bilan bog'lagan. Uning 2009-yilda Rostov-na-Donuda bajarilgan "Психологическая готовность к браку на разных этапах периода взрослости"[4] mavzusidagi tadqiqotida psixologik tayyorgarlik murakkab tizimli shaxsiy tuzilma sifatida tavsiflanib, uning asosiy komponentlari qatoriga qadriyat yo'nalishlari, nikoh motivatsiyasi, er-xotinlik ierarxiyasi haqidagi tasavvurlar, nikohga oid ustanovka va kutilmalar hamda er-xotin munosabatlari haqidagi tasavvurlar kiritilgan. Olimning empirik xulosalariga ko'ra, 17–21 yosh oralig'ida nikoh va bo'lajak turmush o'rtog'i obrazi hali differensiallashish jarayonida bo'ladi hamda nikohga kirishning aniq dominant motivi har doim ham shakllanmagan bo'ladi. 21–40 yosh bosqichida esa psixologik tayyorgarlik nisbatan yuqori bo'lib, muayyan shaxs bilan oila qurishga yo'nalgan motiv ustuvorlik kasb etadi. Bu xulosa maqolamiz uchun ayniqsa muhim: nikoh motivining mazmuni yosh davri va shaxsiy yetuklik darajasiga qarab o'zgaradi, demak, oila mustahkamligini prognozlashda "nima sababdan turmush qurildi?" savoli "qaysi yosh va qanday psixologik tayyorgarlik sharoitida?" degan savol bilan birgalikda o'rganilishi kerak.

Yevropa psixologiyasida oilaviy barqarorlikning psixologik mexanizmlarini tadqiq etgan taniqli shveysariyalik olim Guy Bodenmannning ishlari alohida ahamiyatga ega. Bodenmann, S. Pihet va K. Kayserning *Journal of Family Psychology*[5] jurnalida chop etilgan ikki yillik longitudinal tadqiqotida 90 juftlik kuzatilib, dyadik koping, ya'ni er-xotinning stress va muammolarni birgalikda yengish qobiliyati nikoh sifati bilan statistik jihatdan sezilarli bog'liqligi aniqlangan. Ayollarda o'zining hamda sherigining dyadik kopingi nikoh sifatini bashorat qilgan bo'lsa, erkaklarda o'zining dyadik kopingi muhim prediktor bo'lgan. Ushbu natija nikohning boshlang'ich motivlarini oilaning uzoq muddatli mustahkamligidan ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi: muhabbat va emotsional yaqinlikka asoslangan motiv nikoh qurish uchun muhim bo'lsa-da, oilani saqlash jarayonida hamkorlik, sherikni qo'llab-quvvatlash va birgalikda stressni boshqarish ko'nikmalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur maqola chop etilgan *Journal of Family Psychology* Scopus ma'lumotlari asosida shakllantiriladigan SCImago bazasida qayd etilgan nufuzli oilaviy psixologiya jurnalidir.

Polshalik psixolog Anna Czyżkowska J. Cieciuch bilan hamkorlikda nikoh motivatsiyasiga yaqin bo'lgan "marital goals" – nikoh maqsadlari konsepsiyasini empirik asosda ishlab chiqqan[6]. Ularning *Current Psychology* jurnalida chop etilgan tadqiqotining birinchi bosqichida 684 nafar, ikkinchi bosqichida esa 1268 nafar turmush qurgan yoki birga yashayotgan respondent ishtirok etgan. Mualliflar nikoh maqsadlarini "o'ziga yo'nalganlik – boshqalarga yo'nalganlik" va "munosabatga sodiqlik – munosabatdan qochish" kabi ikki asosiy o'q atrofida tashkil topuvchi sakkiz guruhga ajratganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, barqaror munosabat, o'zaro qo'llab-quvvatlash, ishonch va munosabatga sodiqlikka yo'nalgan maqsadlarning amalga oshishi munosabatlardan qoniqish bilan ijobiy bog'langan, munosabatdan qochishga yo'nalgan maqsadlarning realizatsiyasi esa qoniqish bilan salbiy aloqador bo'lgan. Mazkur natija nikoh motivlarini "ichki" va "tashqi" motivlarga ajratish uchun muhim nazariy asos beradi. Shaxs nikohni o'zaro qo'llab-quvvatlash, yaqinlik va birgalikda rivojlanish vositasi sifatida qabul qilganida oilaviy qoniqish uchun qulayroq psixologik zamin yuzaga keladi; nikohni asosan instrumental foyda yoki tashqi ijtimoiy kutilmalarga moslashish vositasi sifatida qabul qilish esa munosabatning ichki mazmunini zaiflashtirishi mumkin. *Current Psychology* jurnali Scopus asosidagi SCImago tizimida indekslangan xalqaro psixologiya jurnalidir.

Yevropa tadqiqotlarining eng yangi yo'nalishlaridan biri italiyalik psixolog Martina Gallo va uning hamkorlari tomonidan 2026-yilda *BMC Psychology* jurnalida chop etilgan tadqiqotda namoyon bo'ladi. Tadqiqotda 20–30 yoshdagi, bir yildan besh yilgacha barqaror munosabatda bo'lgan 402 juftlik ishtirok etgan. Mualliflar o'z-o'zini belgilash nazariyasiga tayangan holda insonning munosabatda bo'lish motivi qanchalik avtonom va ichki qabul qilingan bo'lsa, juftlik hamda individual farovonlik shunchalik yuqori bo'lishini ko'rsatganlar. Shuningdek, motivatsiya va individual farovonlik o'rtasidagi bog'lanishda nizoga kirishish usuli vositachilik qilishi aniqlangan. Tadqiqot motivatsiyaning sifati insonning sherigiga ochiq va qo'llab-quvvatlovchi munosabatda bo'lishi yoki, aksincha, himoyalannuvchi xulq-atvor orqali nizolarni kuchaytirishiga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ushbu natijalar yoshlarda nikoh qurish motivlarini faqat motivlarning nomi — "sevgi", "farzand", "moddiy ta'minot", "ota-ona istagi" — orqali emas, balki ularning avtonom yoki tashqi boshqariladigan psixologik tabiatiga ko'ra ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. *BMC Psychology* Scopus ma'lumotlari asosidagi SCImago tizimida qayd etilgan xalqaro jurnal hisoblanadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar mahalliy va xorijiy tadqiqotlar o'rtasida muhim metodologik mushtaraklik

mavjudligini ko'rsatadi. N.A. Sog'inov va N.R. Mamatova ishlarida nikoh motivlarining milliy-etnopsixologik, reproduktiv va ijtimoiy jihatlariga urg'u berilgan bo'lsa, S.I. Golod va S.V. Joludeva tadqiqotlarida nikoh motivatsiyasi oilaviy qadriyatlarining transformatsiyasi va shaxsning nikohga psixologik tayyorgarligi bilan bog'lanadi. Guy Bodenmann, Anna Czyzkowska va Martina Gallo tadqiqotlari esa masalani munosabatga sodiqlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, avtonom motivatsiya, dyadik koping hamda konstruktiv konflikt boshqaruvi kabi psixologik mexanizmlar orqali yanada chuqurlashtiradi. Shundan kelib chiqib, yoshlarning nikoh qurish motivlari oila mustahkamligiga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki psixologik tayyorgarlik, motivning ichki yoki tashqi tabiati, er-xotinning umumiy maqsadlari, o'zaro qo'llab-quvvatlash va nizolarni hal etish usullari orqali kompleks ta'sir ko'rsatadi, degan ilmiy farazni ilgari surish mumkin.

Muhokama va natijalar

Yoshlarda nikoh qurish motivlarining oila mustahkamligiga ta'sirini tahlil qilishda "nikoh motivi"ni faqat turmush qurishga undovchi sabab sifatida emas, balki keyingi er-xotinlik munosabatlarining mazmuni va sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik determinant sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Tahlil qilingan empirik manbalar nikoh motivlari oila barqarorligiga bevosita va bilvosita ta'sir etishini, bunda psixologik tayyorgarlik, iqtisodiy va kasbiy yetuklik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, konfliktlarni boshqarish hamda munosabatni saqlashga ichki motivatsiya muhim vositachi omillar ekanini ko'rsatadi.

N.A. Sog'inovning o'zbek oilasida nikohdan qoniqishga bag'ishlangan tadqiqoti milliy-etnopsixologik sharoitda nikoh motivlarining o'ziga xosligini ko'rsatib bergan dastlabki empirik ishlardan biridir. Uning ma'lumotlariga ko'ra, tekshirilgan er-xotinlarning 42,1 foizi turmush o'rtog'i bilan sovchilik vositasida tanishgan. Nikohga kirish motivlari orasida esa "farzandli bo'lish istagi" birinchi o'rinni egallagan va ushbu motiv erkaklar hamda ayollar uchun birdek ahamiyatli ekanini qayd etilgan. Tadqiqotda qishloq oilalarida nikohdan qoniqish darajasi shahardagi oilalarga nisbatan pastroq bo'lishi ham aniqlangan; muallif buni nikoholdi omillari va yosh oilaning ijtimoiy-maishiy sharoitlari bilan bog'lagan.

Mazkur ilmiy fakt nikoh motivlarining madaniy muhit bilan chambarchas bog'langanligini ko'rsatadi. O'zbek oilasida farzandli bo'lish, avlod davomiyligini ta'minlash, ota-ona roziligi va oila qurishning ijtimoiy zarurat sifatida idrok etilishi individual-emotsional motivlar bilan bir qatorda muhim o'rin tutadi. Biroq bunday motivlar oila mustahkamligini avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Motiv shaxs tomonidan ichki qadriyat sifatida qabul qilinganida u mas'uliyat va oilaga sodiqlikni kuchaytirishi mumkin; faqat tashqi talab yoki bosim sifatida qabul qilinganida esa keyinchalik shaxsiy ehtiyojlar va oilaviy majburiyatlar o'rtasida psixologik qarama-qarshilik yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

N.R. Mamatovanning zamonaviy o'zbek yoshlari orasida olib borgan tadqiqoti ushbu holatni yanada aniqroq ko'rsatadi. Tadqiqotda 295 nafar turmush qurmagan va 108 nafar turmush qurgan talaba, jami 403 respondentning reproduktiv va oilaviy ustanovkalari o'rganilgan. Turmush qurmagan talabalar orasida "farzandlar sonining ko'p bo'lishi yashash sharoitini yaxshilash imkonini beradi" degan iqtisodiy motivga 52,88 foiz "mutlaqo to'g'ri", 41,02 foiz "to'g'ri" deb javob bergan. Demak, ikki ijobiy javob yig'indisi 93,90 foizni tashkil etadi. "Avlodlar o'rtasidagi aloqa va avlod davomiyligini ta'minlaydi" degan ijtimoiy motivni ijobiy baholaganlar ulushi 96,95 foiz, "hayotni hissiy boyitadi" degan affektiv motiv bo'yicha esa 88,13 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar manbadagi ikki ijobiy javob kategoriyasini qo'shish orqali hisoblandi.

Turmush qurgan 108 nafar talabada ham shunga yaqin tendensiya kuzatilgan. Iqtisodiy motivni ijobiy baholaganlar ulushi 43,52 va 39,81 foizni qo'shganda 83,33 foiz, avlodlar davomiyligini ifodalovchi ijtimoiy motiv bo'yicha 91,66 foiz, hayotning hissiy boyishi bilan bog'liq motiv bo'yicha esa 88,88 foizni tashkil etadi. Ushbu natijalar o'zbek yoshlarida nikoh va farzand motivatsiyasining bir vaqtning o'zida iqtisodiy, ijtimoiy va emotsional komponentlarga ega ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun nikoh motivlarini faqat "sevgi" yoki "moddiy manfaat" kabi ikki qarama-qarshi guruhga bo'lish psixologik jihatdan yetarli emas; motivlarning ko'p komponentli tuzilishini hisobga olish talab etiladi.

Mamatova tomonidan olingan yana bir natija nikoh qurish vaqtida shaxsning umumiy hayotiy yetukligi masalasiga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Turmush qurgan respondentlarning 50 foizi nikoh ularning iqtisodiy yetuklikka erishishiga to'sqinlik qilganini, 32,41 foizi kasbiy yetuklikka, 15,74 foizi psixologik yetuklikka, 0,92 foizi esa ijtimoiy yetuklikka erishishda muammo tug'dirganini bildirgan. Bu natijani nikohning o'zi iqtisodiy yoki kasbiy rivojlanishni pasaytiradi, deb talqin qilish to'g'ri emas, chunki ma'lumotlar respondentlarning subyektiv baholariga asoslangan. Biroq u nikohga kirishdan oldin iqtisodiy mustaqillik, kasbiy reja va psixologik tayyorgarlikning shakllanganligi kelgusidagi oilaviy barqarorlik uchun muhim ekanini ko'rsatadigan empirik signal sifatida baholanishi mumkin.

Yevropa psixologiyasidagi zamonaviy tadqiqotlar esa motivning nafaqat mazmuni, balki uning qanchalik avtonom va ichki qabul qilinganligi muhimligini ko'rsatmoqda. M. Gallo va hammualliflarning 2026-yilda Italiyada o'tkazgan tadqiqotida 20–30 yoshdagi 402 juftlik, ya'ni 804 nafar respondent qatnashgan. Ularning barchasi 1–5 yil davom etgan barqaror munosabatda bo'lgan va kelajakda o'z sherigi bilan nikoh qurish niyatini bildirgan. Strukturaviy modellashtirish natijalari erkak va ayollarda munosabatni davom ettirishga qaratilgan avtonom juftlik motivatsiyasi konfliktga destruktiv kirishish bilan salbiy bog'langanini ko'rsatgan: ayollarda $\beta = -0,20$, erkaklarda esa $\beta = -0,23$. Boshqacha aytganda, munosabat shaxsiy tanlov, qadriyat va ichki istakka ko'proq asoslangan sari destruktiv konflikt xatti-harakatlarining kamayishi kuzatilgan.

Ushbu tadqiqotda juftlik motivatsiyasi shaxsiy farovonlik bilan ham ijobiy bog'langan: ayollarda $\beta = 0,21$, erkaklarda $\beta = 0,49$. Eng kuchli bog'lanishlardan biri juftlik motivatsiyasi bilan munosabatdagi farovonlik o'rtasida aniqlangan: ayollarda $\beta = 0,86$, erkaklarda $\beta = 0,73$. Shu bilan birga, konfliktga destruktiv kirishish individual farovonlik bilan salbiy bog'liq bo'lib, ayollarda $\beta = -0,30$, erkaklarda $\beta = -0,15$ ni tashkil etgan. Demak, nikoh yoki jiddiy munosabatga ichki, ongli va qadriyatlarga mos motiv bilan kirish nafaqat munosabatdan qoniqish, balki konfliktning

qanday kechishi bilan ham bog'liq.

Mazkur natijaning yana bir muhim jihati shundaki, motivatsiyaning ta'siri faqat shaxsning o'zida qolmaydi. Ayolning juftlik motivatsiyasi erkak sherigining konfliktga destruktiv kirishishi bilan $\beta = -0,17$ darajada salbiy, erkakning munosabatdagi farovonligi bilan esa $\beta = 0,14$ darajada ijobiy bog'langan. Shuningdek, konfliktga kirishish motivatsiya va individual farovonlik o'rtasidagi munosabatda vositachi rol o'ynagan: bilvosita ta'sir ayollarda $\beta = 0,06$, erkaklarda $\beta = 0,04$ bo'lgan. Ushbu fakt oilaviy barqarorlikni individual emas, dyadik psixologik tizim sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni bir tomonning nikohga munosabati va motivatsiyasi ikkinchi tomonning psixologik holati hamda konflikt xulqiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Polshalik olimlar A. Czyżkowska va J. Cieciuchning tadqiqoti nikoh motivlarini nikoh maqsadlari nuqtayi nazaridan tushuntirish imkonini beradi. Birinchi tadqiqotda 684 nafar turmush qurgan yoki birga yashayotgan respondent qatnashgan. Mualliflar nikoh maqsadlarini ikkita asosiy o'q — "o'ziga yo'nalganlik – sherik va munosabatga yo'nalganlik" hamda "munosabatga sodiqlik – munosabatlardan qochish" bo'yicha joylashtirib, sakkizta nikoh maqsadini ajratgan. Keyingi tekshiruvda munosabatga sodiqlikka yo'nalgan maqsadlarning amalga oshirilishi nikohdan qoniqish bilan ijobiy, munosabatlardan qochishga qaratilgan maqsadlarning amalga oshirilishi esa qoniqish bilan salbiy bog'langan.

Bu natija "nima uchun turmush qurmoqchiman?" degan savol bilan bir qatorda "nikoh orqali nimaga erishmoqchiman?" degan savolning ham diagnostik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Masalan, o'zaro qo'llab-quvvatlash, barqaror munosabat, yaqinlik va birgalikda rivojlanish maqsadlari oila mustahkamligini ta'minlovchi konstruktiv motivatsion yo'nalish sifatida namoyon bo'lsa, munosabatni faqat shaxsiy manfaatni himoya qilish yoki yaqinlikdan qochish vositasi sifatida qabul qilish nikohdan qoniqishning pasayishi bilan bog'lanishi mumkin.

Nikohning dastlabki motivlari oilani shakllantirish bosqichida muhim bo'lsa, oila mustahkamligini uzoq muddat saqlashda er-xotinning birgalikda stressni yengish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Guy Bodenmann, Sandrine Pihet va Karen Kayser tomonidan 90 juftlik ikki yil davomida kuzatilgan longitudinal tadqiqotda dyadik koping bilan nikoh sifati o'rtasida vaqt davomida statistik ahamiyatli bog'lanish mavjudligi aniqlangan. Ayollarda ham o'zining, ham turmush o'rtog'ining dyadik kopingi nikoh sifatining ahamiyatli prediktori bo'lgan, erkaklarda esa o'z dyadik kopingi muhim prediktor sifatida namoyon bo'lgan.

Mazkur xulosaning ishonchiligidani yirik meta-tahlil natijalari ham qo'llab-quvvatlaydi. Falconier va hammualliflar 57 ta ilmiy ish asosidagi 72 ta mustaqil tanlanma, jami 17 856 respondent ma'lumotlarini umumlashtirgan. Meta-tahlilda umumiy dyadik koping bilan munosabatlardan qoniqish o'rtasidagi standartlashtirilgan korrelyatsiya $r = 0,45$ ($p < 0,001$) ekanligi aniqlangan. Natija jins, yosh, munosabat davomiyligi, ta'lim darajasi va millatdan qat'i nazar saqlanib qolgan. Bu o'rta-kuchli bog'lanish bo'lib, oilaning mustahkamligi faqat nikohga kirishdagi dastlabki hissiyotga emas, balki er-xotinning muammolarni birgalikda hal qilish qobiliyatiga ham sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatadi.

Shu sababli mazkur tadqiqot doirasida nikoh motivlarini konstruktiv va xavf omili bo'lishi mumkin bo'lgan motivlar tarzida mutlaq ajratishdan ko'ra, ularning avtonomlik darajasi, barqarorligi va shaxsning qadriyatlarini bilan muvofiqligini baholash ilmiy jihatdan asosliroqdir. Sevgi, emotsional yaqinlik, o'zaro hurmat, farzandli bo'lish va oila yaratish istagi ichki qabul qilingan, ikki tomon uchun mushtarak va real hayotiy mas'uliyat bilan uyg'unlashgan holatda oilaviy barqarorlik uchun ijobiy resursga aylanishi mumkin. Moddiy ta'minot yoki ijtimoiy mavqe kabi motivlar ham o'z-o'zidan destruktiv emas; ular boshqa motivlarni butunlay siqib chiqarganda yoki nikohning yagona maqsadiga aylanganda psixologik xavf ortishi mumkin.

Natijalar, shuningdek, nikohga psixologik tayyorgarlik bilan nikoh qurish istagini bir tushuncha sifatida qabul qilib bo'lmashligini ko'rsatadi. Nikohga tayyorgarlik hissiy yaqinlikdan tashqari iqtisodiy mustaqillik, kasbiy istiqbol, mas'uliyatni qabul qilish, turmush o'rtog'ining ehtiyojlarini hisobga olish, nizolarni konstruktiv hal etish va kelajak oilasi haqidagi real tasavvurlarni ham qamrab olishi lozim. O'zbek respondentlarida nikohdan keyingi iqtisodiy va kasbiy yetuklik bilan bog'liq qiyinchiliklarning yuqori ulushda qayd etilgani ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy faktlar yoshlarda nikoh qurish motivlari oila mustahkamligining muhim psixologik omili ekanini ko'rsatadi. Biroq "oilalarning mustahkamligi" turli tadqiqotlarda bir xil ko'rsatkich bilan o'lchanmaganini hisobga olish zarur: ayrim ishlarda nikohdan qoniqish, boshqalarida juftlik farovonligi, konfliktga kirishish darajasi, dyadik koping yoki nikoh sifati mezon sifatida olingan. Bundan tashqari, Gallo va hammualliflarning 2026-yilgi tadqiqoti ko'ndalang dizaynga ega bo'lganligi sababli undagi regressiya koeffitsiyentlari sabab-oqibat munosabatini isbotlamaydi, balki o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi. Bodenmann va hammualliflarning ikki yillik longitudinal natijalari esa oila barqarorligining dinamik mexanizmlarini tushuntirish uchun kuchliroq empirik asos beradi[7].

Umuman, olingan ilmiy dalillar yoshlarda nikoh qurish motivlarini o'rganishda uchta asosiy psixologik mezon — motivning mazmuni, uning ichki-avtonom yoki tashqi-boshqariladigan tabiati hamda motivning er-xotinning kundalik munosabatlarida qanday amalga oshishi — birgalikda baholanishi zarurligini ko'rsatadi. Aynan shu uch jihatning uyg'unligi nikohdan qoniqish, o'zaro ishonch, konstruktiv konflikt boshqaruvi va uzoq muddatli oilaviy barqarorlik uchun muhim psixologik zamin yaratadi.

Xulosa

Yoshlarda nikoh qurish motivlarining oila mustahkamligiga ta'sirini psixologik jihatdan tahlil qilish nikohning barqarorligi faqat hissiy yaqinlik yoki turmush qurish istagi bilan belgilanmasligini ko'rsatadi. Nikohga undovchi motivlarning mazmuni, ularning shaxs tomonidan qanchalik ongga ravishda qabul qilingani, ichki qadriyatlar bilan mosligi va er-xotinning kelajak haqidagi tasavvurlari oilaviy munosabatlar sifatiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omillardandir.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar sevgi, emotsional yaqinlik, o'zaro hurmat, oilaviy mas'uliyat, farzandli bo'lish istagi va barqaror munosabat yaratishga intilish kabi motivlar shaxsning ichki ehtiyojlari va qadriyatlarini bilan uyg'unlashgan

holatda nikohdan qoniqish va oilaviy barqarorlik uchun ijobiy psixologik zamin yaratishini ko'rsatdi. Aksincha, faqat tashqi bosim, moddiy manfaat, ijtimoiy mavqe yoki vaziyatli ehtiyojlarga asoslangan nikoh motivlari shaxsning ichki ehtiyojlari bilan nomuvofiq bo'lsa, keyinchalik psixologik ziddiyatlar va munosabatlardan qoniqmaslik xavfini kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqotlar, shuningdek, nikoh qurish motivlarini oila mustahkamligidan alohida holda baholab bo'lmashligini tasdiqlaydi. Er-xotinning konfliktlarni konstruktiv hal qilishi, bir-birini emotsional qo'llab-quvvatlashi, stressli vaziyatlarni birgalikda yengishi, o'zaro ishonch va mas'uliyatni saqlashi dastlabki nikoh motivlarining oilaviy hayotda qanday namoyon bo'lishini belgilaydi. Shu sababli oila barqarorligi motivatsion, emotsional, kommunikativ va xulq-atvor omillarining o'zaro ta'siri natijasi sifatida qaralishi lozim.

O'zbek yoshlari misolida esa nikoh motivlarining milliy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Farzandli bo'lish, avlod davomiyligini ta'minlash, ota-ona roziligi va oila qadriyatlariga sodiqlik kabi motivlar milliy oilaviy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq mazkur motivlarning konstruktiv ta'siri ularning yoshlarning shaxsiy tanlovi, psixologik tayyorgarligi va hayotiy rejalari bilan muvofiqlashganligiga bog'liq.

Umuman olganda, yoshlarda nikoh qurish motivlarining oila mustahkamligiga ta'siri ko'p omilli psixologik jarayon bo'lib, bunda motivning mazmunidan tashqari uning avtonomligi, barqarorligi va shaxsning hayotiy qadriyatlari bilan uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida faqat nikoh va oila haqidagi umumiy bilimlarni berish bilan cheklanmasdan, ularning nikoh motivlarini anglash, realistik oilaviy kutilmalarni shakllantirish, psixologik yetuklikni rivojlantirish, konstruktiv muloqot va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan psixoprofilaktik va maslahat ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan asosiy ilmiy manbalar

1. Sog'inov N.A. *Социально-психологические особенности удовлетворенности браком в узбекской семье*: avtoref. diss. ... kand. psixol. nauk: 19.00.05. – Kiev, 1990. – 20 b.
2. Mamatova N.R. *Yoshlarda reproduktiv madaniyatni shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari*: psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024.
3. Голод С.И. *Семья и брак: историко-социологический анализ*: монография. – СПб.: Петрополис, 1998. – 272 с. – ISBN 5-86708-113-3.
4. Жолудева С.В. *Психологическая готовность к браку на разных этапах периода взрослости*: дис. ... канд. психол. наук: 19.00.13. – Ростов-на-Дону, 2009. – 258 с.
5. Bodenmann G., Pihet S., Kayser K. The relationship between dyadic coping and marital quality: A 2-year longitudinal study // *Journal of Family Psychology*. – 2006. – Vol. 20, No. 3. – P. 485–493. DOI: 10.1037/0893-3200.20.3.485.
6. Czyżkowska A., Cieciuch J. Marital goals: Circular value-based model and measurement // *Current Psychology*. – 2022. – Vol. 41. – P. 3401–3417. DOI: 10.1007/s12144-020-00787-0.
7. Gallo M., Liga F., Cuzzocrea F., Gugliandolo M.C. Well-being in romantic relationships: the role of motivation and conflict engagement // *BMC Psychology*. – 2026. – Vol. 14. – Article 292. DOI: 10.1186/s40359-026-04103-6.